

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
AMUDARYO TUMANI HOKIMI
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
AMIWDARYA RAYONI HAKIMI
BIYLIGI**

2021 - yil 14 - oktabr

42-13-181-F/21

Amudaryo tumani hokimligi

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 119-moddasi hamda Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashining 2021-yil 6-oktabr kungi VI-38-20-13-181-K/21-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Narimov)ga tuman hokimining 2021-yil 23-aprel kungi 17-f-sonli farmoyishi asosida Qipchoq OFY, O‘rta qal‘a OFY, “Chordara” MFY, “Namuna” MFY, Jumurtov ShFY hududlariga tunggi yoritgich chiroqlarini o‘rnatish ishlari uchun ajratilgan mablag‘laridan ortib qolgan qismini tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga yangi CHEVROLET DAMAS D2DLX xizmat avtomashinasi, metan yoqilg‘isi xarid qilish, shahar markaziy ko‘chalarining bezak chiroqlarini tayyorlash ishlariga va ko‘cha bezaklarini sotib olish uchun ishlatishga ruxsat berilsin.

2. Tuman moliya bo‘limi (U.Bekniyazov)ga 2021-yilning 1-yanvar holatiga mahalliy byudjetning tashkil topgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasining murojaat xatiga va hisob-kitoblar jadvaliga ko‘ra ilovaga muvofiq mablag‘ sarflanishi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Ch.Tajimuratov)ga mahalliy byudjetning erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni qonunda belgilangan me‘yoriy hujjatlar asosida ishlatilishini nazorat qilish topshirilsin.

4. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Temirboyev hamda Sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari N.Kamolov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S. YO'LDASHEV

Амударё туман ҳокимининг
2021 йил 14 октябрдаги
42-13-181-F/21-сон фармойишига
1-илова

Amudaryo tuman mahalliy byudjetining 2021-yil 1-yanvar holatiga tashkil topgan erkin qoldiq hisobidan ajratilgan mablagʻlarning ortib qolgan qismidan foydalanish toʻgʻrisida

MA'LUMOT

№	Xarajatlar	Ajratilgan mablagʻ miqdori
1	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (Chevrolet Damas D2 DLX sotib olish uchun)	78 283 000,00
2	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (Metan yoqilgʻisi xarid qilish uchun)	30 000 000,00
3	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (Koʻcha bezaklari tayyorlash ishlari uchun)	85 000 000,00
4	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (Koʻcha bezaklari sotib olish uchun)	29 717 000,00
	JAMI:	223 000 000,00